

**O'zbekiston texnik jihatdan tartibga solish agentligining 2026 yil
I yarim yillikdagi faoliyati to'g'risida
MA'LUMOT**

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2026 yil 16 fevraldagi PF–25-son Farmoni hamda texnik jihatdan tartibga solish sohasida qabul qilingan normativ-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalar ijrosini ta'minlash maqsadida O'zbekiston texnik jihatdan tartibga solish agentligi tomonidan 2026 yilning yanvar–may oylari davomida standartlashtirish, metrologiya, muvofiqlikni baholash, akkreditatsiya, sifat menejmenti tizimlari va davlat nazorati yo'nalishlarida keng ko'lamli ishlar amalga oshirildi.

Amalga oshirilgan chora-tadbirlar texnik jihatdan tartibga solish sohasini xalqaro talablar asosida takomillashtirish, milliy mahsulotlarning raqobatbardoshligini oshirish, eksport salohiyatini kengaytirish, mahsulotlar sifati va xavfsizligini ta'minlash, shuningdek tadbirkorlik sub'ektlariga qulay shart-sharoitlar yaratishga qaratildi.

Standartlashtirish sohasida

Hisobot davrida milliy standartlashtirish tizimini xalqaro amaliyotga muvofiq rivojlantirish bo'yicha tizimli ishlar davom ettirildi. Milliy standartlarni xalqaro va mintaqaviy standartlar bilan uyg'unlashtirish ishlari natijasida standartlar fondidagi milliy standartlarning xalqaro standartlar bilan uyg'unlashtirish darajasi 46 foizga yetkazildi.

Tadbirkorlik sub'ektlari, ishlab chiqaruvchilar va boshqa manfaatdor tashkilotlarni me'yoriy hujjatlar bilan ta'minlash maqsadida 1 756 ta standart taqdim etildi. Bu esa mahsulot va xizmatlar sifatini ta'minlash, ishlab chiqarish jarayonlarini takomillashtirish hamda xalqaro bozorlarga chiqish imkoniyatlarini kengaytirishda muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Korxona va tashkilotlarning murojaatlari asosida transport vositalari uchun 8 ta identifikatsiya VIN (WMI) kodlari ajratildi. Shuningdek, davlat reestriga kiritish uchun 683 ta buyurtma qabul qilinib, mahsulotlarga 5 062 ta shtrix-kod maketlari tayyorlandi.

Standartlashtirish sohasida inson resurslarini rivojlantirishga alohida e'tibor qaratildi. Jumladan, 1 482 nafar mutaxassisning malakasi oshirildi, 700 nafar mutaxassis standartlashtirish, metrologiya va muvofiqlikni baholash sohalari bo'yicha attestatsiyadan o'tkazildi.

91 ta tashkilot bilan shartnoma asosida me'yoriy hujjatlarni aniqlash va dolzarblashtirish ishlari amalga oshirildi. Shuningdek, 531 ta standart loyihasi ekspertizadan o'tkazildi hamda milliy axborot tizimining standartlar fondi moduliga 720 ta standart joylashtirildi.

Texnik jihatdan tartibga solish sohasida amalga oshirilayotgan islohotlar va yangiliklarni keng jamoatchilikka yetkazish maqsadida ommaviy axborot vositalari, televidenie, radio va ijtimoiy tarmoqlar orqali keng ko‘lamli axborot-tushuntirish ishlari tashkil etildi. Hisobot davrida jami 101 ta axborot chiqishi amalga oshirildi.

Muvofiqlikni baholash sohasida

Muvofiqlikni baholash infratuzilmasini rivojlantirish, sinov laboratoriyalarining texnik imkoniyatlarini kengaytirish va xalqaro talablarga muvofiqligini ta‘minlash maqsadida zarur chora-tadbirlar amalga oshirildi. Xususan, laboratoriyalarning texnik bazasini mustahkamlash maqsadida 111 ta o‘lchash, sinov va yordamchi vositalar xarid qilindi.

Hisobot davrida 92 323 ta sinov bayonnomasi rasmiylashtirildi. O‘tkazilgan sinovlar natijasida 115 ta mahsulotda belgilangan texnik talablarga nomuvofiqliklar aniqlandi. Mazkur holatlar yuzasidan belgilangan tartibda tegishli choralar ko‘rildi.

Mahsulotlarni sertifikatlashtirish organlari tomonidan jami 12 765 ta muvofiqlik sertifikatlari rasmiylashtirildi. Bu mahsulotlarning belgilangan talablarga muvofiqligini tasdiqlash va ularning ichki hamda tashqi bozorlarda erkin muomalada bo‘lishini ta‘minlashga xizmat qildi.

Eksportyor korxonalarni qo‘llab-quvvatlash maqsadida 926 ta korxonaga 1 280 ta amaliy va konsultativ xizmatlar ko‘rsatildi. Korxonalarga xalqaro standartlar, texnik reglamentlar va tashqi bozorlar talablari bo‘yicha zarur ma‘lumotlar taqdim etildi.

Amalga oshirilgan ishlar natijasida mahalliy mahsulotlarning Kolumbiya, Germaniya, Rossiya Federatsiyasi, Qozog‘iston, Qirg‘iziston, Turkmaniston, Tojikiston va Afg‘oniston kabi davlatlarga eksport qilinishiga ko‘maklashildi.

Shuningdek, eksportyor korxonalarga muvofiqlikni tasdiqlovchi hujjatlarni rasmiylashtirish hamda Yevropa Ittifoqi bozori uchun zarur bo‘lgan SYe markirovkasi talablarini joriy etish bo‘yicha amaliy yordam ko‘rsatildi.

Sifat menejmenti tizimlari sohasida

Korxonalarda xalqaro sifat menejmenti tizimlarini joriy etish va ularning samarali faoliyat ko‘rsatishini ta‘minlash bo‘yicha ishlar davom ettirildi.

Hisobot davrida 576 ta korxonada xalqaro menejment tizimlari joriy qilinishiga ko‘maklashildi va tegishli muvofiqlik sertifikatlari rasmiylashtirildi. Menejment tizimlarini sertifikatlashtirish organi tomonidan esa 742 ta muvofiqlik sertifikatlari berildi.

Mazkur ishlar mahsulot sifati va xavfsizligini ta'minlash, ishlab chiqarish samaradorligini oshirish, resurslardan oqilona foydalanish hamda tashqi bozorlarda milliy mahsulotlar raqobatbardoshligini kuchaytirishga xizmat qilmoqda.

Metrologiya sohasida

Metrologiya sohasini rivojlantirish, o'lchashlarning aniqligi va ishonchliligini ta'minlash hamda milliy etalon bazasini mustahkamlash bo'yicha keng ko'lamli ishlar amalga oshirildi.

Hisobot davrida milliy etalonlar soni 42 taga yetkazildi. Laboratoriyalarning moddiy-texnik bazasini takomillashtirish maqsadida yangi namunaviy o'lchash vositalari xarid qilindi.

Sohadagi normativ-huquqiy bazani takomillashtirish maqsadida qator qonun va qonunosti hujjatlari loyihalari ishlab chiqildi. Shuningdek, xalqaro qonunlashtiruvchi metrologiya tashkiloti (OIML) hujjatlari asosida milliy standartlarni qabul qilish va o'lchashlarning yagona birligini ta'minlashga qaratilgan standartlarni ishlab chiqish ishlari davom ettirildi.

Xalqaro tarozi va o'lchovlar byurosi (BIPM) bazasida O'zbekiston Respublikasining kalibrlash va o'lchash imkoniyatlari bo'yicha yozuvlari kengaytirilib, ularning soni 20 taga yetkazildi.

Germaniya, Chexiya va Koreya Respublikasining ixtisoslashgan tashkilotlari bilan hamkorlikda zamonaviy laboratoriyalarni tashkil etish va modernizatsiya qilish bo'yicha loyihalar amalga oshirilmoqda.

Shuningdek, sohada yuqori malakali kadrlar tayyorlashga alohida e'tibor qaratildi. Hisobot davrida institutning 46 nafar mutaxassisi xorijiy yetakchi metrologiya muassasalarida malaka oshirish kurslari va seminarlarda ishtirok etdi.

Davlat nazorati sohasida

Bozorda mahsulotlar sifati va xavfsizligini ta'minlash, iste'molchilar huquqlarini himoya qilish hamda texnik reglamentlar va standartlar talablariga rioya etilishini nazorat qilish bo'yicha tizimli ishlar amalga oshirildi.

Huquqbuzarliklarning oldini olish maqsadida 7 954 ta tadbirkorlik sub'ektiga ogohlantirish xatlari va tushuntirish materiallari yuborildi.

Nazorat xaridlari doirasida chakana savdo ob'ektlaridan 163 ta mahsulot namunasi xarid qilinib, akkreditatsiyalangan laboratoriyalarda sinovdan o'tkazildi. Sinovlar natijasida 61 ta mahsulot belgilangan talablarga nomuvofiq deb topildi.

Shuningdek, muvofiqlik sertifikatlari rasmiylashtirilishining qonuniyligi yuzasidan tahlil va monitoring ishlari amalga oshirildi. Aniqlangan kamchiliklar

bo'yicha tegishli ta'sir choralari ko'rildi hamda kamchiliklarni bartaraf etish bo'yicha ko'rsatmalar berildi.

Laboratoriyalarning texnik jihatdan malakaliligini baholash ishlari ham izchil davom ettirildi. O'rganishlar natijasida belgilangan talablarga javob beruvchi korxona va tashkilotlarga tegishli ruxsatnomalar rasmiylashtirildi.

Hisobot davrida amalga oshirilgan ishlar texnik jihatdan tartibga solish tizimini yanada takomillashtirish, mahsulotlar sifati va xavfsizligini ta'minlash, tadbirkorlik sub'ektlarini qo'llab-quvvatlash hamda milliy iqtisodiyotning eksport salohiyatini oshirishga xizmat qildi.